

PAPER

## YOSHLAR LEKSIKASI VA TIL MADANIYATI: ZAMONAVIY NUTQDA SLENG VA XORIJIY SO‘ZLAR TAHLILI

Hoshimova Jasmina<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi

\* hoshimova@gmail.com

### Abstract

Ushbu maqolada yoshlar nutqida sleng birliklari va begona so‘zlarning ortib borishi til madaniyatining yemirilishiga ta’siri ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Muallif bunday leksik birliklarning ko‘payish sabablarini tahlil qiladi hamda ularning qo‘llanishini kamaytirish bo‘yicha mumkin bo‘lgan choralarni taklif etadi.

**Key words:** yoshlar tili, begona so‘zlar va slenglar, milliy til, ijtimoiy tarmoqlar, til me‘yorlari.

Oxirgi 10 yil ichida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish shu darajada oshdiki, insonlar hayotlarini Instagram, Tiktok kabilarisiz tasavvur qila olishmaydigan bo‘lishdi. Afsuski, shunga o‘xshash platformalardan haddan ziyod foydalanish yoshlar nutqida sleng va xorijiy so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘lyapti. Kelajak avlod—yoshlar muloqotida xorijiy so‘zlarning keng qo‘llanishi o‘z ona tilimizning imkoniyatlarini, tilimizning ifoda vositalarini to‘laligicha namoyon qilishi uchun asosiy to‘siq bo‘lmoqda. Axir, til—millat ko‘zgusi. U o‘zida xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini va qadriyatlarini jamlaydi.

Bularni avloddan avlodga yetkazish va mamlakatimizni dunyoga tanitish, tilimizning

imkoniyatlarini ochib berish nutqning vazifasidir. Bunga dalil sifatida buyuk bobokalonimizning so‘zlarni misol keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiy aytganidek: “Til shuncha sharafiga bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lsangiz tilning ofatidir”[4]. Afsuski, bugungi kunda nutq me‘yorlarining ko‘plab buzilishlariga duch kelyapmiz. Keling, birinchi nutq me‘yorlarining ko‘rib chiqaylik.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tirgan nutq me‘yorlarining buzilishi ayniqsa yoshlar muloqotida ko‘p uchrashi til madaniyati va ti estetikasiga katta xavf tug’dirmoqda.

Axborot texnologiyalari asrida, yoshlar nutqida xorijiy so‘zlar va slenglarning keng qo‘llanishi

Compiled on: December 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

1-jadval. Nutq madaniyati me'vorlari[1]:

|                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
|----------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Nutqning to'g'riligi    | Talaffuz, imloviy-grammatik me'vorlariga amal qilish(V.G.Kostomarov)[2].                                                                                                                                                                                                              |
| 2. Nutqning aniqligi       | So'zning o'zi ifodalovotgan voqeilikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir.                                                                                                                                                                                                             |
| 3. Nutqning tozaligi       | Adabiy til me'yoriga muvofiq kelishidir va jargon, vulgarizm va slenglardan xoli bo'lishi tushiladi.                                                                                                                                                                                  |
| 4. Nutqning mantiqiyligi   | Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatleri bo'lgan to'g'rilik va anqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. |
| 5. Nutqning ta'sirchanligi | Nutq so'zlayotgan inson tinglovchiga ruhiy ta'sir qila olishi.                                                                                                                                                                                                                        |

kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ijtimoiy tarmoqlardir. Shuni eslatib o'tish joizki, tilga xorijiy so'zlarning kirib kelishi tabiiy holdir, lekin xorijiy so'zlarning tilimizda ekvivalenti bo'la turib, xorijiy so'zlardan foydalanish tilimizga tahdid hisoblanadi.

Xorijiy so'zlar—xorijiy mamlakatlardan kirib kelgan, ba'zan ekvivalentli, ba'zan ekvivalentsiz so'zlardir [5]. Keling, bugun yoshlar nutqida ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelgan so'zlarni ko'rib chiqaylik. Bulardan biri futbol ixlosmandlari orasida tarqalgan "G.O.A.T", bu so'z eng yaxshi futbolchiga nisbatan ishlatiladi, ya'ni barcha davrlarning eng buyugi, qisqacha aytganda — eng zo'ri. Hozir Instagram tarmog'ida ommalashayotgan begona so'zlarni tahlil qilsak, eng ko'p qo'llaniladiganlaridan biri "trend" — ommalashgan narsa; keyingisi, trendning bir qismi bo'lgan "top" — juda mashhur; "comfort zona" — qulay muhit; "prikol" — yumor; "shok" — hayratlanarli holat; "story" — Instagram yoki Telegramda hikoya joylash; "content" — videorolik; videoga "like bosish" — yoqtirish; "heyat qilish" — tanqid qilish; odamlar videoga "comment qoldirishadi", ya'ni izoh yozishadi; "follower" — obunachi; boshqa bloggerlar bu videoni "repost" qilishadi — qayta ulashish.

Sleng — bu rasmiy bo'lmagan, ko'proq yoshlar orasida ishlatiladigan emotsional so'zlar bo'lib, adabiy til me'vorlariga to'g'ri kelmaydi[6]. Masalan, "bomba" slengi — "juda ajoyib"; "motivi yo'q" — xohishi yo'q; "vibe bermayapti" — didiga mos emas, yoqmayapti. Bunday so'zlarning yoshlar orasida keng qo'llanilayotgani nutq madaniyatining buzilishi va tilimizga tahdid hamdir. Agar bunga befarqlik bilan qaralsa, leksik degradatsiyaga olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Yoshlar tilida begona so'zlar va slenglarning ko'p uchrashining asosiy sabablariga quyidagilar kiradi: 1. Ijtimoiy tarmoqlar, xususan Instagram va TikTok platformalarining keng tarqalishi, shuningdek videorolik yaratuvchilarning milliy tilga yetarli e'tibor bermasligi, yosh avlodning begona so'zlarni nutqida qo'llashiga sabab bo'lmoqda. 2. Yoshlar orasida "zamonaviylik" va "ilmlilik" ko'rinishiga intilish mavjud. Kelajak bunyodkorlari slenglardan foydalanib ilmiy inson sifatida ko'rinishga intilishadi, ammo bu nutqda adabiy va estetik me'yorlarni buzadi, milliy tilning sifatini pasaytiradi. 3. Ingliz tilidagi videolar va global kontentning keng ommalashuvi tilimizga begona so'zlarning kirib kelishini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, tilni to'g'ri ishlatish printsipli shundan iboratki, ingliz tilida gapirganda inglizcha, o'zbek tilida so'zlashganda esa sof o'zbekcha nutq qo'llanilishi lozim. Bu yondashuv til madaniyati va ilmiy-etnik qadriyatlarni saqlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, begona so'zlarning tilimizga kirib kelishi va ularning omma tomonidan qo'llanishi tabiiy lingvistik jarayon sifatida baholanishi mumkin. Biroq, milliy muqobil variantlari mavjud bo'lsa ham, begona so'zlardan va slenglardan ortiqcha foydalanish leksik boylikning kamayishiga va milliy so'zlarning unutilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, til madaniyatini saqlash va rivojlantirish maqsadida quyidagi choralar tavsiya etiladi: 1. Tilshunoslik tadqiqotlari orqali nazorat: Tilshunoslar yangi kirib kelgan so'zlarning kelib chiqishi, ma'nosi va qo'llanilish kontekstini o'rganib, ularning milliy tilga mos muqobil variantlarini jamoatchilikka taqdim etishlari lozim.

2. Ta'lim muassasalarida targ'ibot: Maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarga, muqobil so'zlari mavjud bo'lgan begona leksik birliklar va slenglardan foydalanish tilning aniqligi, go'zalligi va adabiy me'vorlariga zarar yetkazishi tushuntirilishi zarur.

3. Milliy tilni rivojlantiruvchi kontent: Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa media platformalarda milliy tilni targ'ib qiluvchi videolar yaratish, sof o'zbek tilida so'zlashuvchi kontent yaratuvchilarni qo'llab-quvvatlash til madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu choralar yoshlar nutqida begona so'zlar va slenglarning ortiqcha qo'llanilishini kamaytirish hamda milliy

tilimizning boyligini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr—texnologiyalar asrida, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar—Instagram,Telegram, Tiktok kabilar juda keng tarqalishi yoshlar muloqotida sleng va xorijiy so'zlarning keng qo'llanishiga asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa nutq me'yorlari va til estetikasining buzilishiga, ona tilimiz o'zining ifoda qiymatini yo'qolishiga sabab bo'lmoqda.Shu bois, bu o'zgarishni nazorat qilish va yoshlar so'zlashuvida xorijiy so'zlar va slenglarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ya'ni maktab va universitetlarda targ'ibot ishlarininolib borish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy tilimizda gapirishni targ'ib qilish zarur.

## References

1. Rasulov R., Mo'ydinov O. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .- Toshkent. 2015 -B.20-25.
2. Tojiyev Y., Husanova N., Tojmatov H., Yo'ldasheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari 1994. 14 b.
3. Rustamova D. Yoshlar muloqotida begona so'zlar va jargonlar:til madaniyatiga tahdid//Worldly Journals.com 2025. -№2. B.156-161.
4. Alisher Navoiy hikmatlari// ziyouz.com 2013
5. <https://www.wikipedia.uz>
6. <https://t.me/slanguz>